

The background features abstract, overlapping geometric shapes in various shades of green, ranging from light lime to dark forest green. These shapes are primarily located on the left and right sides of the frame, leaving a large white central area. The shapes are composed of triangles and quadrilaterals, some with thin white outlines.

Menejment

Reja

- 1. Menejment fanining mazmuni va mohiyati**
- 2. Menejment fanining maqsad va vazifalari, obykti va metodi.**
- 3. Menejment fanining tahlil usullari**
- 4. Menejment fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi**

- ▶ *Yangilikka intilish menejerlik kasbining mazmun – mohiyatini tashkil qiladi.*
- ▶ *Menejment* — bu inglizcha soʻz boʻlib, ingliz tilining Oksford lugʻatida berilgan taʼrifga binoan u:
 - ▶ * boshqaruv hokimiyati va sanʼati;
 - ▶ * resurslarni boshqarish boʻyicha alohida mohirlik va maʼmuriy koʻnikmalar tushuniladi.
- ▶ Boshqacha soʻz bilan aytganda, *menejment* — bu boshqaruv, yaʼni resurslarni, odamlarni boshqarish, samarali faoliyat olib borish va foyda olishni bilish, uni koʻpaytirish jarayonidir. Shu nuqtai nazardan *boshqaruv* — bu oʻziga xos yuksak sanʼat va mahoratni talab qiluvchi tanlov, shu *tanlov* asosida *qaror qabul qilish* va uning bajarilishini *nazorat qilish*dir.

Bugungi kunda menejment va boshqaruv to'g'risida quyidagi umum qabul qilingan fikrlar mavjud:

- ▶ *yuksak san'at va mahoratni talab qiluvchi tanlov*
- ▶ ** mustaqil fan*
- ▶ ** faoliyat turi, funktsiya*
- ▶ ** jarayon*
- ▶ ** tashkilotlarni boshqaruvchi xodimlar*
- ▶ ** boshqaruv apparati yoki organi.*

Menejment tavsiflari

- ▶ Menejment - iqtisodga taalluqli, bozor munosabatlariga asoslangan alohida boshqaruv turidir.
- ▶ Menejment - iqtisodiy boshqaruv usullariga asoslanib daromad va foyda olishni koʻzda tutadi.
- ▶ Menejment - maqsadga muvofiq boshqaruv usuli yoki mehnatni samarali tashkil qilishga yoʻnaltirilgan boshqaruvdir.
- ▶ Menejment - mahsulot sifatini va mehnat unumdorligini oshirishni oʻz vazifasi deb biluvchi boshqaruvdir.
- ▶ Menejment - yuqori malakali boshqaruvdir. Bu tashkiliy faoliyat turi boʻlib, uning muhim boʻgʻini, aniq boshqaruv sharoitlari, yangiliklar loyihasini ishlanishi, tashkilot taraqqiyotining taktikasi va strategiyasi, shuningdek, boshqalarni har tomonlama va aniq tahlil qilishdir.
- ▶ Menejment – oʻzini egiluvchan va uddaburon boshqaruv tizimi deb hisoblanadi, oʻz vaqtida qayta tuzilish, bozor konʻyukturasi, hamda raqobat kurashini, ijtimoiy taraqqiyot omilini ziyraklik bilan seza olish qobiliyatiga ega.
- ▶ Menejment - bu shunday faoliyatki, unda inson harakatlarini tayyorlash, tashkil qilish va toʻgʻri yoʻlga solish haqidagi sanʼat mujassamdir.

***Resurslarni
boshqarish***

***Odamlarni
boshqarish***

***Menejment
maqsadi va
vazifalari***

***Samarali
faoliyat olib
borish***

***Foyda olishni
bilish***

Menejment fani bu — boshqaruvchiga tanlovi to'g'ri amalga oshirishni va oqilona qarorni qabul qilishni o'rgatuvchi fanidir. Uning asosiy maqsadi bozor munosabatlari sharoitida barcha bo'g'inlarda samarali ishlay oladigan yuqori malakali boshqaruvchilarni tayyorlashdan iborat.

Menejment faning predmeti

- ▶ * *boshqarish nazariyasi va amaliyoti;*
- ▶ * *boshqarish obyekti va subyekti;*
- ▶ * *boshqarish tamoyillari va usullari;*
- ▶ * *boshqarish madaniyati;*
- ▶ * *menejer va uning fazilatlari;*
- ▶ * *menejer reytingi;*
- ▶ * *boshqarishda qaror qabul qilish;*
- ▶ * *boshqarish funksiyalari;*
- ▶ * *xodimlarni boshqarish;*
- ▶ * *ishlab chiqarishni boshqarish,*
- ▶ * *samaradorlikni boshqarish;*
- ▶ * *o‘z-o‘zini boshqarish;*
- ▶ * *hududiy boshqarish va hokazolar.*

Menejment fanining tahlil usullari

№	Tahlil usullari	Mazmuni
1.	Sistemali yondashuv	* Boshqariluvchi obyekt yaxlit tizim tarzida olib qaraladi. Bu yondashuv turlicha bo'lishi mumkin: * sistemali – kompleks yondashuv * sistemali – funksional yondashuv * sistemali – tarkibiy yondashuv * sistemali – kommunikatsion yondashuv
2.	Kompleks yondashuv	* Boshqariluvchi obyekt boshqa obyektlar bilan o'zaro bog'lanishda va aloqadorlikda qaraladi
3.	Tarkibiy yondashuv	* Boshqariluvchi obyekt tarkibiy qismlarga bo'lib o'rganiladi
4.	Vaziyat (situatsiya) li yondashuv	* Boshqariluvchi obyektning konkret sharoitdagi ichki va tashqi vaziyatga qarab boshqarishning ma'qul uslubi qo'llaniladi
5.	Integratsion yondashuv	* Boshqariluvchi obyekt yuqoridagi uslublar (vaziyatli, kompleks, tarkibiy yondashuvlar)ni birgalikda qo'llash yordamida boshqariladi
6.	Modellashtirish usuli	* Boshqariluvchi obyekt boshqarish bo'yicha turli sxema, grafik va chizmalar, xomaki materiallar tayyorlanadi
7.	Iqtisodiy – matematik yondashuv	* Optimal qaror qabul qilish maqsadida matematik uslublar va hisoblash mashinalarini keng miqyosda qo'llash
8.	Kuzatish usuli	* Boshqariluvchi obyekt to'g'risidagi ma'lumotlarni rejali, ilmiy, uyushtirilgan asosda to'plash usuli
9.	Eksperiment (tajriba) usuli	* Boshqarish jarayonida boshqariluvchi obyektga nisbatan namunaviy tajribadan o'tgan usullarni qo'llash
10.	Ijtimoiy (sotsiologik) kuzatuv usuli	* Boshqarish maqsadida turli anketali so'rovlar, suhbatlar, testlar, infratuzilmaviy tahlillarni o'tkazish

Menejmentning o'rganish obyekti

- ▶ Boshqaruv faoliyatiga doir iqtisodiy hodisa va jarayonlar, firma ishini samarali tashkil etish xususiyatlari, boshqaruvning amaldagi zamonaviy shakl va usullari, uning kelajak istiqbollari tashkil etadi. Bunda menejment nazariyasining rivojlanish tendensiyasi, uni tashkil etish tamoyillari va usullari, motivatsiya va boshqaruv samaradorligi masalalari obyekt sifatida o'rganiladi.

Menejment obyekti va subyekti

Menejment		
№	Obyekti (boshqariluvchi hodisa, voqelik)	Subyekti(boshqaruv organi, rahbarlik)
1	2	3
1. Makrodarajada		
1.	Mamlakat (respublika)	* Qonun chiqaruvchi hokimiyat (Oliy Majlis) * Ijro etuvchi hokimiyat(o‘zR Vazirlar Mahkamasi) * Sud hokimiyati
2.	Viloyat	* QQR Jo‘qorgi kengashi va viloyat deputatlari * QQR Vazirlar kengashi, viloyatlar hokimiyatlari * QQR Oliy sudi, viloyatlar sudlari
3.	Tuman (shahar)	* Tuman (shahar) xalq deputatlari * Tuman (shahar) lar hokimliklari * Tuman (shahar) sudlari
2. Megodarajada		
4.	Konsern (ko‘p tarmoqli korporatsiya)	* Qo‘mitalar va ularning raislari
5.	Sektor (tarmoq)	* Vazirliklar va vazirlar
3. Mikrodarajada		
6.	Korxonona (firma), korporatsiya	* Jamoa kengashi va raislar, prezident
7.	Ishlab chiqarish	* Korxonona (firma) rahbarlari, bo‘g‘in boshliqlari
8.	o‘z – o‘zini boshqarish	* Fuqarolar yig‘ini, rais (oqsoqol) lar

